



ASOSIY VOSITALAR HISOBI

Esanov Oybek Madatovich

SamISI "Bosqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" assistenti

Nabiyeva Umeda Valizoda

SamISI, 3- bosqich talabasi

Umedanabiyeva14@gmail.com

+998970306205

Annotatsiya : Ushbu maqolada asosiy vositalar hisobi tushunchasi, uning buxgalteriya hisobidagi ahamiyati va yuritilish tamoyillari yoritiladi. Asosiy vositalarning tasnifi, ularning dastlabki bahosi, amortizatsiya hisoblash usullari hamda hisobdan chiqarish jarayonlari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro va milliy buxgalteriya standartlariga muvofiq asosiy vositalar hisobining yuritilishidagi farqlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, amortizatsiya, moddiy aktiv, boshlang'ich qiymat, qoldiq qiymat, buxgalteriya standartlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие учета основных средств, его значение в бухгалтерском учете и принципы его ведения. Подробно рассматриваются классификация основных средств, их первоначальная стоимость, методы начисления амортизации и процессы списания. Также анализируются различия в ведении учета основных средств в соответствии с международными и национальными стандартами бухгалтерского учета.

Ключевые слова: основные средства, амортизация, материальный актив, первоначальная стоимость, остаточная стоимость, стандарты бухгалтерского учета.



Abstract: *This article covers the concept of fixed asset accounting, its importance in accounting, and the principles of its implementation. The classification of fixed assets, their initial cost, methods of calculating depreciation, and write-off processes are examined in detail. Differences in the accounting of fixed assets in accordance with international and national accounting standards are also analyzed.*

Keywords: *fixed assets, depreciation, tangible assets, initial cost, residual value, accounting standards.*

Kirish

Asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlar – bu kompaniya egalik qiladigan va o‘z faoliyatida daromad olish uchun foydalanadigan uzoq muddatli moddiy xususiyatlar. Bir yil ichida asosiy vositalarni iste’mol qilish yoki naqd pulga aylantirish kutilmaydi. Asosiy vositalar kapital, asosiy vositalar sifatida ham tanilgan. Ushbu aktivlar korxonaning normal faoliyatida qayta sotish uchun emas, balki mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish maqsadida kompaniya tomonidan saqlanadi. Masalan, mashinalar, binolar, patentlar yoki litsenziyalar kompaniyaning asosiy vositalari bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

R.B.Urazovning “Buxgalteriya hisobi va audit” nomli o‘quv qo‘llanmasida buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, korxonalarda aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek audit nazariyasi, uning umumiy metodologiyasi va tashkil qilinishi, audit natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va tadbiq etish oxirgi yillarda qabul qilingan qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq yoritilgan.

R.D.Dusmuratovning “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” darsligida Buxgalteriya hisobining mohiyati, maqsadi va vazifalari, predmeti va uslubi, balansning mohiyati va tuzilishi bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda



yoritilgan. Buxgalteriya hisobining schotlari va ikki yoqlama yozuv, analitik va sintetik hisobning xususiyatlari kabi o'zlashtirish murakkab bo'lgan masalalar tushunarli va batafsil bayon qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoiti uchun aktivlarni baholash, kalkulyatsiyalash uslublari va ta'minot, ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlarini hisobga olishning xususiyatlarini yoritish muhim o'rin egallagan. Hujjatlashtirish, inventarizatsiya, hisob registrlari va shakllari, buxgalteriya hisobotining mohiyati va ahamiyati yetarli darajada bayon etilgan. Korxonaning hisob siyosati, buxgalteriya hisobini milliy va xalqaro standartlarga muvofiq isloh qilish masalalari alohida o'rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda asosiy vositalar hisobini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunlari va xalqaro buxgalteriya standartlari (IAS 16) o'rganilib, ularning asosiy tamoyillari taqqoslandi. Bu yondashuv asosiy vositalarning huquqiy jihatdan qanday tartibga solinishini tushunish imkonini berdi.

Miqdoriy tahlil – Asosiy vositalarning amortizatsiya usullari va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Ushbu uslub asosiy vositalarning iqtisodiy samaradorligini baholashga yordam berdi.

Solishtirma tahlil – Xalqaro va milliy buxgalteriya standartlarining asosiy farqlari aniqlanib, ularning amaliyotdagi qo'llanilish darajasi baholandi. Bu orqali milliy amaliyotning qaysi jihatlari xalqaro standartlarga mos kelishini va qaysi jihatlarda farqlar borligini aniqlashga erishildi.

Amaliy tadqiqot – Moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalarni aks ettirish va amortizatsiya usullarining real misollarda qo'llanilishi o'rganildi. Buxgalteriya



hisobi yuritilayotgan korxonalarining moliyaviy hujjatlari tahlil qilinib, turli usullarning natijalarga ta'siri ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar

Respublikamizning 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar (3-§,3a-band).

Ushbu standartga ko'ra (4-§) asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- a) bir yildan ortiq xizmat muddati;
- b) iqtisodiy naf keltirish.

Korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqli.

5-son BHMS № 5 ga muvofiq (3-§,3a-band 6-band) moddiy aktivlarni asosiy vositalar sifatida tan olish uchun ular yuqorida keltirilgan mezonlardan tashqari yana quyidagi shartlarga ham javob berishi lozim:

- ✓ xizmat muddati davrida korxonaga daromad keltirish kafilligini mavjudligi.
- ✓ qiymatini aniq belgilashni mumkinligi.

Moddiy aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda ularni foydali xizmat muddatini belgilash muhim rol o'ynaydi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarining asosiy vositalari o'z foydalanish nuqtai-nazaridan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) bino;
- 2) inshoot;
- 3) o'tkazuvchi qurilmalar;
- 4) mashina va uskunalar;



- a) kuch mashinalari va uskunalari;
 - b) ishchi mashina va uskunalari;
 - v) o`lchov va tartibga soluvchi asboblari, qurilmalar va laboratoriya uskunalari;
 - g) hisoblash texnikasi;
 - d) boshqa mashina va uskunalari.
- 5) transport vositalari;
 - 6) asbob-uskunalari;
 - 7) ishlab chiqarish inventarlari va jixozlari;
 - 8) xo`jalik inventarlari;
 - 9) ishchi va mahsuldor molar;
 - 10) ko`p yillik daraxtlar;
 - 11) yerni yaxshilash bo`yicha kapital harajatlar (inshootlarsiz);
 - 12) Boshqa asosiy vositalar.¹

Ishlab chiqarishda qatnashishiga ko`ra korxonalarning asosiy vositalari ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga bo`linadi. Ishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga bevosita ishlab chiqarishga doir bo`lgan moddiy aktivlar, masalan sexlarning binolari, inshootlar, stanoklar, jihozlar, transport vositalari, ishchi hayvonlar va boshqalar kiradi.

Noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga boshqaruv apparatiga doir, shuningdek korxonaning ijtimoiy-madaniy, maishiy, sog`liqni saqlash, kommunal maqsadlarda foydalaniladigan moddiy aktivlari kiradi. 21-son BHMS ga asosan Asosiy vositalar va ularning eskirishi buxgalteriya schotlar rejasida aks ettiriladi²

¹ Asosiy_vositalar_hisobi-kurs_ishi

² 21-son BHMS



1-jadval

**Asosiy vositalar va ularning eskirishi buxgalteriya schotlar aks
ettirilishi**

	Asosiy vositalar		Asosiy vositalarning eskirishi
0110	Yer	0211	Yerni obodonlashtirishning eskirishi
0111	Yerni obodonlashtirish	0212	Lizing bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish-ning eskirishi
0112	Lizing bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish	0220	Bino, inshootlar va uzatgich moslamalarning eskirishi
0120	Bino, inshootlar va uzatgich moslamalar	0230	Mashina va uskunalarning eskirishi
0130	Mashina va uskunalar	0240	Mebel va ofis jihozlarining eskirishi
0140	Mebel va ofis jihozlari	0250	Kompyuter uskunasi va hisoblash texnikasining eskirishi
0150	Kompyuter uskunasi va hisoblash texnikasi	0260	Transport vositalarining eskirishi
0160	Transport vositalari	0270	Ishchi hayvonlarning eskirishi
0170	Ishchi va mahsuldor hayvonlar	0280	Ko'p yillik o'simliklarning eskirishi
0180	Ko'p yillik o'simliklar	0290	Boshqa asosiy vositalarning eskirishi
0190	Boshqa asosiy vositalar	0299	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi



0199	Konservatsiyadagi asosiy vositalar		
------	------------------------------------	--	--

Asosiy vositalar bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Asosiy vositalar holati va harakatini to'g'ri, o'z vaqtida tegishli boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirish va hisobga olish;
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) ni belgilangan usul va me'yorlar bo'yicha to'g'ri hisoblash;
- Asosiy vositalarni Soliq Kodeksiga muvofiq soliqqa tortilishini ta'minlash;
- Asosiy vositalarning butligini ta'minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tqazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish;
- •Mavjud asosiy vositalardan unumli foydalanish, buning uchun ularni ishsiz turib qolishlariga yo'l qo'ymaslik, keraksiz asosiy vositalarni ijaraga berish, likvidatsiya qilish, bepul berish yoki sotish natijalarini to'g'ri hisobga olish;
- Asosiy vositalarga qilingan qo'shimcha harajatlarni (kapital quyilmalarni, joriy va kapital ta'mirlash harajatlari) to'g'ri hisobga olish, ularni o'z vaqtida maqsadiga qarab asosiy vositalarning qiymatiga yoki korxona harajatlariga kiritish;
- Asosiy vositalar bo'yicha lizing operatsiyalarini to'g'ri rasmiylashtirish va hisobga olish;
- Asosiy vositalar holati va harakati to'g'risidagi hisobotni to'g'ri tuzish va tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etish.

Respublikamizning 5-son BHMS (3-§)ga muvofiq **asosiy vositalarni qayta baholash** - asosiy vositalar tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirishdir. Qayta baholashda asosiy vositalarning tiklangan qiymati oshirilishi yoki pasaytirilishi mumkin.



Qayta baholash ikki usulda, ya'ni bozor baholaridan kelib chiqqan holda to'g'ridan to'g'ri eski qiymatni bozor qiymatigacha yetkazish yoki eski qiymatni belgilangan koeffitsiyentlarga ko'paytirish yo'li bilan yangi qiymatga chiqish usullarida korxonaning o'zi yoki mol-mulkni qayta baholash bo'yicha maxsus litsenziyaga ega bulgan korxonalar (hokimiyatning kadastr bo'limi yoki boshqa firmalar) tomonidan olib borilishi mumkin. Yangi va eski qiymatlar o'rtasidagi farq qayta baholash qiymatini tashkil etadi. Ushbu summa ijobiy son bilan chiqsa, u asosiy vositalarning qiymatini oshirilganligini, manfiy son bilan chiqsa, u asosiy vositalar qiymatini pasaytirilganligini bildiradi. Qayta baholash natijasi inventarizatsiya qaydnomasi asosida hisobda aks ettiriladi.

5-son BXMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq (6-§) jamlangan amortizatsiya (eskirish)ni hisoblash qo'yidagi usullar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

- Bir maromda hisoblash;
- Bajarilgan ish hajmiga proporsional hisoblash;
- Xizmat yillari yig'indisiga proporsional hisoblash (kumulyativ usul);
- Kamayib boruvchi qoldiq qiymatdan hisoblash.

Shu bilan birga Xalqaro va milliy buxgalteriya standartlari tushunchasi ham mavjud.

Xalqaro buxgalteriya standartlari (XBS/IFRS – International Financial Reporting Standards) – jahon miqyosida moliyaviy hisobotlarning bir xillikda yuritilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan qoidalar to'plami. Asosiy vositalar hisobi XBS 16 (**IAS 16 – Property, Plant and Equipment**) standartiga muvofiq yuritiladi.

Milliy buxgalteriya standartlari (MBS) – har bir davlatning o'z buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tuzish qoidalarini belgilovchi normativ hujjatlari. Masalan, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari



(BHMS) XBS tamoyillariga yaqinlashgan bo'lsa-da, ayrim farqlarga ega³(2-jadval):

2-jadval

BHXS va BHMSlarining farqli jixatlari

Mezon	Xalqaro buxgalteriya standartlari (IAS 16)	Milliy buxgalteriya standartlari (BHMS/O'zbekistonda)
Dastlabki baholash	Asosiy vositalar dastlab sotib olish yoki qurish xarajatlari bo'yicha baholanadi.	Xuddi shunday, ammo ayrim davlatlarda davlat tomonidan belgilangan narxlash tamoyillari qo'llanilishi mumkin.
Qayta baholash	Qayta baholash modeli va dastlabki qiymat modeli ishlatilishi mumkin. Qayta baholash daromad yoki zarar sifatida hisobga olinishi mumkin.	Ko'pincha qayta baholash kamroq qo'llaniladi, qayta baholash faqat rasmiy tasdiqlangan ekspertiza asosida amalga oshiriladi.
Amortizatsiya usullari	To'g'ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq va ishlab chiqarish hajmiga bog'liq usullar qo'llaniladi. Korxona o'z	O'zbekistonda asosan to'g'ri chiziqli usul qo'llaniladi, ayrim hollarda kamayib boruvchi qoldiq usuli ishlatilishi mumkin.

³ https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-16-property-plant-and-equipment/?utm_source



	hisob siyosatiga qarab usulni tanlaydi.	
Qoldiq qiymatni aniqlash	Asosiy vositalarning bozor qiymati asosida aniqlanadi va muntazam ravishda qayta baholanadi.	Qoldiq qiymat amalda minimal darajada qo'llaniladi va odatda nol deb olinadi.
Chiqarib tashlash	Asosiy vosita sotilganda yoki hisobdan chiqarilganda uning balansdagi qiymati, amortizatsiyasi va foyda yoki zarari alohida aks ettiriladi.	O'xshash tamoyil qo'llaniladi, biroq ayrim hollarda aktivlarning hisobdan chiqarilishi uchun qo'shimcha ruxsat talab etiladi.
Hisobotga kiritish	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq barcha asosiy vositalar haqida batafsil ma'lumot berilishi shart.	Asosiy vositalar hisobotda ko'rsatiladi, biroq ayrim detallar xalqaro standartlarga qaraganda kamroq yoritilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi

Tadqiqot natijalari asosida asosiy vositalarni hisobga olish jarayoni va amortizatsiya hisoblash usullari bo'yicha bir qator muhim jihatlar aniqlandi. Ushbu natijalar xalqaro va milliy buxgalteriya standartlari doirasida solishtirilib, ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.

Amortizatsiya hisoblash usullari va ularning ta'siri tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy amaliyotda asosan to'g'ri chiziqli amortizatsiya usuli keng qo'llaniladi. Ushbu usulning afzalligi hisob-kitobning soddaligi va moliyaviy



hisobotda aniq ko‘rinish hosil qilishidadir. Biroq xalqaro tajribada kamayib boruvchi qoldiq va ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq amortizatsiya usullari ham keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar asosiy vositalarning real foydalanish darajasini inobatga olgan holda eskirishni hisobga olish imkonini beradi.

Qayta baholashning amaliy ahamiyati Xalqaro standartlarda asosiy vositalarni qayta baholash (IAS 16 bo‘yicha) kompaniyaning real aktiv qiymatini aks ettirishga xizmat qiladi. Milliy amaliyotda esa bu jarayon kamroq qo‘llaniladi, chunki aktivlarni qayta baholash soliq yukining ortishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qayta baholashdan foydalanish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam berishi mumkin, ammo u iqtisodiy sharoit va huquqiy me‘yorlarga bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Asosiy vositalarni hisobga olish tamoyillari Xalqaro va milliy buxgalteriya tizimlarining asosiy farqlaridan biri – aktivlarning dastlabki baholash tamoyillari bilan bog‘liq. Xalqaro standartlarda asosiy vositalar sotib olish yoki qurish narxi bo‘yicha baholanadi va keyinchalik bozor sharoitlariga qarab qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Milliy standartlarda esa qayta baholash kamdan-kam hollarda amalga oshiriladi va qoldiq qiymat odatda nolga tenglashtiriladi.

Xulosa

Asosiy vositalar korxona va tashkilotlarning uzoq muddat foydalaniladigan moddiy aktivlari bo‘lib, ular ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonining ajralmas qismidir. Ularning to‘g‘ri hisobga olinishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Asosiy vositalarning dastlabki bahosi ularni sotib olish yoki yaratish jarayonidagi barcha xarajatlar yig‘indisi orqali aniqlanadi. Ular eskirgan sari qiymati kamayib boradi va amortizatsiya hisoblash orqali moliyaviy natijalarga ta‘sir ko‘rsatadi. Amortizatsiya to‘g‘ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq, ishlab



chiqarish hajmiga bog‘liq va tezlashtirilgan usullarda hisoblanishi mumkin. To‘g‘ri yuritilgan asosiy vositalar hisobi korxona aktivlaridan samarali foydalanish, soliqqa tortish jarayonini optimallashtirish va investitsion rejalashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, bu jarayon xalqaro buxgalteriya standartlari va milliy qonunchilik talablari asosida olib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2023.-80 b
2. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi" to‘g‘risida"gi Qonuni O‘RQ-404-sonli 13-aprel 2016-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–T.: "O‘zbekiston", 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M."Taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 yillar" PF 60-sonli 28.01.2022-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy 5-son standarti.
6. Qosimov, A., & Xodjayev, S. (2022). Asosiy vositalar va ularning hisobini yuritish: Teoriya va amaliyot. Tashkent: Iqtisodiyot va statistika nashriyoti.
7. Kamilov, M., & Jumaniyozov, Z. (2021). Korxona moliyasining asosiy tamoyillari. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.
8. Sharipov, A. (2020). Amortizatsiya va uning asosiy vositalar hisobidagi roli. Tashkent: Tadbirkorlik va biznes nashriyoti.
9. Nurmatov, B. (2023). Buxgalteriya hisobi: Asosiy vositalar va ularning boshqarilishi. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
10. <https://lex.uz/acts/-1357627>
11. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-16-property-plant-and-equipment/?utm_source